




New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

1 (75) 2025

**Сопредседатели редакционной
коллекции:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМООНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

1 (75)

2025

январь

www.bsmi.uz

<https://newdaymedicine.com> E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

Received: 20.12.2024, Accepted: 03.01.2025, Published: 10.01.2025

UDC 616.5:616.89-07-085.26

PSORIAZNING TURLI SHAKLLARI BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA NEVROTİK KASALLIKLARNI TUZATISHNING AHAMIYATI HAQIDA

¹Maxmutov R.X. <https://orcid.org/0009-0004-1889-1515>

²Rahmatov A.B. <https://orcid.org/0009-0007-1798-0665>

³Dolimova M.A. <https://orcid.org/0000-0000-0000-0000>

³Jo'raev N.N. <https://orcid.org/0009-0005-5131-5824>

¹G'ulomqodirov M.M. <https://orcid.org/0009-0002-0057-1404>

¹O'zbekiston Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Yangi Turon ko'chasi 2-A uy Tel: +998 (73) 243-06-62 Email: info@fjsti.uz

²O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent, O'zbekiston

³Andijon davlat tibbiyot instituti O'zbekiston, Andijon, Otabekov 1 Tel: (0-374) 223-94-60.
E.mail: info@adti

✓ Rezyume

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi negizida, keyinchalik Qo'qon shahridagi 2-son Farg'ona viloyat teri-ta'nosil kasalliklari dispanserining bo'limida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Farg'ona filiali bo'limlarida 18 yoshdan 72 yoshgacha bulgan ambulator va statsionar tartibda davolanayotgan 100 nafar (erkaklar – 60, ayollar – 40) psoriasis bilan kasallangan bemorlar biz tarafdin ko'rildi va o'rganildi. Ushbu izlanish natijasiga ko'ra bu maqolada psoriasisning turli shakllari bo'lgan bemorlarda nevroitik registrning psixopatologik buzilishlarning tuzilishini o'rganish va ularni tuzatishning yanada samarali usullarini ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: psoriasis, nevroitik buzilishlar, psixoterapiya, psixofarmakoterapiya

ON THE IMPORTANCE OF CORRECTING NEUROTIC DISORDERS IN PATIENTS WITH VARIOUS FORMS OF PSORIASIS

¹Maxmutov R.X. <https://orcid.org/0009-0004-1889-1515>

²Rahmatov A.B. <https://orcid.org/0009-0007-1798-0665>

³Dolimova M.A. <https://orcid.org/0000-0000-0000-0000>

³Jo'raev N.N. <https://orcid.org/0009-0005-5131-5824>

¹G'ulomqodirov M.M. <https://orcid.org/0009-0002-0057-1404>

¹Uzbekistan Fergana Public Health Medical Institute, Fergana Region, Fergana City, Yangi Turon Street 2-A Tel: +998 (73) 243-06-62 Email: info@fjsti.uz

²Republican specialized dermatovenerology and cosmetology scientific-practical medical center of the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

³Andijan State Medical Institute, Uzbekistan, Andijan, Otabekov 1 Tel: (0-374) 223-94-60.
E-mail: info@adti

✓ Resume

The study was conducted on the basis of the Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center for DermatoVenereology and cosmetology of the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan, later in the polyclinic and department of the Ferghana Regional Dermatovenerological Dispensary No. 2 in the city of Kokand, as well as in the departments of the Fergana Regional Dermatological and Venereological Dispensary No. 1 in the city of Fergana. Were examined 100

patients with psoriasis (men - 60 people, women - 40 people) aged 18 to 72 years, who received outpatient and inpatient treatment. Based on the results of this research, this article will look at the issues of studying the structure of psychopathological disorders of the neurotic register in patients with different forms of psoriasis and developing more effective ways to correct them.

Key words: *psoriasis, neurotic disorders, psychopharmacotherapy, psychotherapy.*

*Menga psixiatriya va fan eshiklarini ochgan odam, o'qituvchim,
tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent Qurbonova Shahnoza Muradovna
xotirasiga bag'ishlangan*

Dolzarbligi

Psoriasis va ruhiy kasalliklar bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb mavzudir. Ushbu muammoning ahamiyati O'zbekiston va jahon olimlari ishlari bilan tasdiqlanadi. Olimlar kurashmoqda, ishlamoqda, amaliy tibbiyot esa dam olmoqda, aytishimiz mumkinki, amaliy shifokorlar psoriasis bilan og'rigan bemorlarning ruhiyatiga deyarli e'tibor bermaydilar, ruhiy nuzulishlarni davolashda psixoterapiya va psixofarmakoterapiya usullaridan foydalanmaydilar.

Bugungi kunda ko'plab ma'lumotlar mavjud, ularga ko'ra, ijtimoiy ahamiyatga ega dermatologik kasalliklar, shu jumladan ruhiy buzilishlari mavjud psoriasis bilan kasallanganlar soni ko'paymoqda. O'zbekistonning turli mintaqalarida O'zR SSV RDvaKIATM xodimlari tomonidan olib borilgan epidemiologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bemorlarning 20-30 foizida ruxiy jarohatlardan so'ng ijtimoiy ahamiyatga ega dermatozlar (psoriasis, vitiligo, atopik dermatit va boshqalar) paydo bo'lgan va teri jarayonining kuchayishida ushbu qo'zg'atuvchi omilning ulushi yanada katta bo'lgan [1-7]. Shunga qaramasdan, keyinchalik shifokorlar tomonidan markaziy asab tizimining faoliyatiga ta'sir etadigan yoki meyorlashtiriladigan dorilarni va psixoterapevtik usullarni qo'llanilmagan, kamdan-kam hollarda eng oddiy tinchlantiruvchi (valerian, pustirnik va boshqalar) ishlatilgan [3-11].

Psoriasis odamga butun umri davomida hamroh bo'ladi va ruhiy buzilishlarning shakllanishiga olib keladi, bemorlarning hayot sifatini pasaytiradi, ularni ijtimoiy-psixologik jihatdan yomonlashtiradi [12-18].


Tadqiqot maqsadi: psoriasisning turli shakllari bo'lgan bemorlarda nevroitik registrlarning psixopatologik buzilishlarning tuzilishini o'rganish va ularni tuzatishning yanada samarali usullarini ishlab chiqish.

Material va usullar

Tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi negizida, keyinchalik Qo'qon shahridagi 2-son Farg'ona viloyat teri-ta'nosil kasalliklari dispanserining bo'limida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Farg'ona filiali bo'limlarida o'tkazildi. Biz 18 yoshdan 72 yoshgacha bo'lgan 100 ta psoriasis kasalligi bilan og'rigan bemorlarni (erkaklar - 60 kishi, ayollar - 40 kishi) tekshirdik. Psoriasis bilan og'rigan bemorlarni tekshirish klinik-anamnestik va klinik-psixopatologik usullar bilan, shuningdek ma'lum sinamalar yordamida psixologik testlar orqali amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida klinik-psixopatologik usuldan tashqari, Bekning depressiyani baholash sinamasi, shuningdek, Spilberger-Xanning reaktiv va shaxsiy tashvishlarini o'z-o'zini baholash sinamasi ishlatilgan. Ma'lumotlar №1 rasmda keltirilgan.

Rasm №1.

Psixologik muammolarini aniqlash uchun ishlatiladigan psixologik sinamalar ro'yxati



Natija va tahlillar

Klinik ko'rinishlar asosida psopiaz kasalligining quyidagi shakllari aniqlandi: vulgar – 60 bemorda, ekssudativ-15 bemorda, artropatik-15 bemorda, eritrodermik– 10 bemorda. Anamnestic ravishda 100 bemorning 75 tasida birinchi psoriatik toshmalar ruhiy-xissiy zo'riqishdan, ma'lum vaqtdan keyin paydo bo'lganligi va odatda sub'ektiv hislar bilan birga bo'lganligi aniqlandi.

Anamnezda 75 (75%) bemorda (50 erkak, 25 ayol) kasallikdan oldin ruhiy jaroxat holati borligi aniqlandi: qarindoshining o'limi - 10 erkak, 5 ayol; transport hodisalari - 10 erkak, 2 ayol; ajralish (oilaviy muammolar) – 5 erkak, 8 ayol; yong'in – 2 erkak, 3 ayol; moliyaviy muammolar – 14 erkak, 2 ayol; qamoqqa olish (o'zi yoki qarindoshi) – 5 erkak, 2 ayol; hayvonlarning hujumlari va tana jarohatlari – 4 erkak, 3 ayol. Ma'lumotlar 1 diagrammada ko'rsatilgan.

Shuningdek, bemorlarning 50 foizida 50 (35 erkak, 15 ayol) teri kasalligi davrida ruhiy jaroxatli vaziyat mavjudligi aniqlandi: qarindoshning o'limi-15 erkak, 4 ayol; transport hodisalari - 5 erkak, 2 ayol; ajralish (oilaviy muammolar) - 7 erkak, 6 ayol, moliyaviy qiyinchiliklar (ishdan bo'shatish ish) 8 erkak, 3 ayol.

Turli darajadagi nevroitik buzilishlar tekshiriluvchilarning 85 foizida, 85 bemorda (52 erkak va 33 ayol) aniqlangan. Psixopatologik kasalliklarning asosiy namoyon bo'lishi asabiylashish edi 70%, 70 bemor (41 erkak va 29 ayol), 33%, 33 nafar bemorda (12 erkak va 21 ayol) kayfiyat pastligi aniqlangan. Uyqu buzilishi 35%, 35 bemor (23 erkak va 12 ayol), 34% - 34 bemor (12 erkak va 22 ayol) qo'rquv va xavotirni boshdan kechirgan, 17% - 17 bemor (6 erkak va 11 ayol) o'z joniga qasd qilish fikri borligini tan olgan. Teri kasalligi bilan bog'liq tashqi ko'rinishi ustidan xavotirlar 38% - 38 ta tekshiriluvchida (18 erkak va 20 ayol) qayd etilgan, bu ularning hayot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ma'lumotlar 2 diagrammada ko'rsatilga

Diagramma 1.





Diagramma 2.




Tadqiqot natijasida bemorlarning 50 foizida o'rtacha reaktiv va yuqori shaxsiy xavotir borligi aniqlandi. Tekshirilganlarning 10 foizida subklinik darajadagi depressiya qayd etilgan. Bemorlarning 1/3 dan ko'prog'ida kasallikning ilk boshlanishi va kuchayishi ruxiyatni jaroxatlovchi vaziyat bilan sababiy bog'liqligi aniqlanganligini e'tiborga joiz.

Psoriaz bilan og'rigan bemorlarda yuqoridagi nevroitik buzilishlarni mavjudligi, ularni tuzatish uchun psixoterapiya va psixofarmakoterapiya muolajalarini olish uchun asos bo'ldi. Psixoterapiya va psixofarmakoterapiya yo'naltirilgan ruhiy buzilishlarning asosiy ko'rinishlari asabiylashish, past kayfiyat, uyquning buzilishi, qo'rquv va xavotir, o'z joniga qasd qilish fikrlari, teri jarayoni bilan bog'liq tashqi ko'rinish xavotirlari edi. Shuni ta'kidlash kerakki, nevroitik buzilishlarning tabiati va namoyon bo'lishi psoriatik jarayonning og'irligi va shakli bilan to'g'ridan-to'g'ri mutanosib ravishda bog'liq edi. Shunday qilib, "vulgar psoriaz" va "ekssudativ psoriaz" tashxisi qo'yilgan bemorlarda nevroitik buzilishlar va alomatlarining og'irligi 10-30% hollarda, artropatik va eritrodermik shakllari bo'lgan bemorlarda esa 75-85% hollarda namoyon bo'lgan.

Ko'proq bemorlarda (60%) nevroitik holatning surunkali tusga aylanishi qayd etilgan, bu xavotir-qo'rquv turidagi shaxsning nevroitik rivojlanishi shaklida taqdim etilgan. Bemorlarning oz qismi (17%) obsesiv-kompulsiv rivojlanish turiga ega edi. 13% xolatda isterik turidagi shaxsning rivojlanishini kuzatilgan. Bemorlarning 10% nevroitik depressiya sifatida tavsiflangan holatni qayd etdi. Ma'lumotlar 2 diagrammada ko'rsatilgan.

Diagramma 3.

Psoriatik bemorlarning nevroitik holatlari.



Psoriaz bilan og'rigan bemorlarda yuqoridagi holatlar tusida ichki noqulaylik tufayli ishda ham, oilada ham, qarindoshlar va do'stlar davrasida ham tez-tez to'qnashuvlar bo'lgan. Bu tez-tez janjallarga, mojarolarga va hatto asabiy buzilishlarga olib kelgan. Oxir-oqibat, ularning ba'zilari hal qilinmagan nizoli vaziyatlarga ega bo'lib, ishdan bo'shatish va ajralish, do'stlari, qarindoshlari va yaqinlari bilan munosabatlarning uzilishi bilan yakunlangan.

Biz klassik gipnoterapiya, mijozga va muammoga yo'naltirilgan psixoterapiyani o'z ichiga olgan turli xil texnikalar to'plami bilan integratsiyalashgan psixoterapevtik yondashuvni qo'lladik, shuningdek sedativ, nootropik dorilar, anksiyolitiklar va antidepressantlarni tavsiya qildik.

Isterik tarkibiy qism ustun bo'lgan psixopatologik kasalliklar klinikasidagi bemorlarda suggestiv usullarini qo'llashda yaxshi natija qayd etildi. Obsesiv-kompulsiv belgilar ustun bo'lgan bemorlarda asosan mijozga markazlashtirilgan va muammoga yo'naltirilgan psixoterapiya usullari ijobiy natija ko'rsatdi. Xavotir va qo'rquv gipnoz usullari, shuningdek, bo'shashtiruvchi uslublari bilan yaxshi bartaraf etildi.

Klinikada xavotir-qo'rquv, obsesiv-kompulsiv va isterik buzilishlari ustun bo'lgan bemorlarda tinchlantiruvchilar, nootropik va anksiyolitiklardan foydalanish ham samarali bo'ldi. Nevrotik depressiya namoyon bo'lgan bemorlarga antidepressantlar yaxshi yordam berdi. Shuni ta'kidlash kerakki, nevroitik psixopatologik buzilishlarning namoyon bo'lishi va og'irligi asosiy kasallikning og'irligi va shakli bilan to'g'ridan-to'g'ri mutanosib ravishda bog'liq edi.

Bunday hollarda, asosiy davolanish bilan bir qatorda, biz psixoterapiya va kombinatsiyalangan psixofarmakoterapiyani o'tkazdik. Deyarli har bir kishi ruhiy holatni sezilarli darajada yaxshilagan va ko'plab bemorlarda terining asosiy patologik jarayoni kamaygan.

Xulosa

Ko'rib turganingizdek, yuqoridagi ma'lumotlar psoriasisning murakkab tabiatini, ko'pchilik sub'ektlarda ruhiy kasalliklarning mavjudligini, shuningdek, teri patologiyasining paydo bo'lishi va prognoziga psixotraumatik omillarning ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Turli noxush ijtimoiy oqibatlarga olib keluvchi, surunkali va qaytalanuvchi kasallik psoriazni og'irlashtiruvchi nevrotik registrdagi ruhiy buzilishlar doimiy mavjudligi bemorlarning ruhiyati qanchalik muxim ekanligini anglatadi.

Shuning uchun psoriasis kasalligi bilan og'rigan bemorlarni davolashda psixoterapiya va psixofarmakoterapiya usullaridan foydalanish mumkin va zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Agranovskiy M. L., Raxmatov A. B., Maxmutov R. X. Psoriasis bilan og'rigan bemorlarda asosiy patologiya bilan nevrotik kasalliklarning komorbidligi Epomen: tibbiyot fanlari. Elektron davriy ilmiy nashr. № 2, 2022 yil aprel
2. Agranovskiy M.L., Raxmatov A.B., Maxmutov R.X. Psoriasis bilan og'rigan bemorlarni psixoterapevtik davolash. 2022-yil 12-apreldagi "yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklar epidemiologiyasining dolzarb muammolari" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami.
3. Agranovskiy M.L., Raxmatov A.B., Maxmutov R.X. Psoriasisning turli shakllari bo'lgan bemorlarda nevrotik buzilishlar. II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya dermatovenerologiya va dermatoonkopatologiyada diagnostika va davolashda yangi texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari 12.05.2022 yil.
4. Agranovskiy M.L., Gulomkodiroy M.M., Galimova S.A., Mo'minov R.K. (2022). Qayta tiklanadigan kurs turi bilan shizofreniyada uzoq katamnez ma'lumotlarini tahlil qilish. //Iqtisodiyot va jamiyat, 2022;6-2(97):285-288.
5. Agranovskiy M.L., Gulomkodiroy M.M., Galimova S.A., Mo'minov R.K. (2022). Shizofreniya spektrining qayta tiklanadigan turi va buzilishlari bilan shizofreniyaning uzoq bosqichi. //Iqtisodiyot va jamiyat 2022;6-2(97):289-292.
6. Bakulev A.L. Psoriasis: klinik xususiyatlar, xavf omillari va bog'liq komorbid holatlar. Klinik farmakologiya va terapiya. 2019;28(1):35-9. <https://doi.org/10.32756/0869-5490-2019-1-35-39>.
7. Gulomkodiroy M., Mashrapov J. (2022). Shizofreniya bilan og'rigan bemorlarda kognitiv faoliyat va umumiy klinik rasmning o'zaro bog'liqligini empirik izlash. //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2022;1(5):221-223.
8. Gulomkodiroy M. (2021). Af'yunga qaramlik xosil bulish dinamikasi va xususiyatlari. //Internauka, 2021;20(7):23-25.
9. G'ulomqodiroy M. (2021). Yurak-qon tomir kasalliklardagi depressiya xolatini tashhislash va davolashni takomillashtirish. //Internauka, 2021;17(4):61-62.
10. G'ulomqodiroy M. (2023). Kech shizofreniyaning uzoq davom etadigan qayta tiklanadigan turlari. //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2023;2(19):349-355.
11. Dontsova E.V. Psoriazni fizioterapiya va oldini olishga zamonaviy yondashuvlar (adabiyotlarni ko'rib chiqish) /Dontsova E. V., Novikova L. A., Baxmetyeva T. M., Borzunova L. N. //Yangi tibbiy texnologiyalar Byulleteni. 2018;2:148-151. <https://doi.org/10.24411/2075-4094-2018-16023>.
12. I.Yu. Dorozhenok, E.V. Ilyina Psoriasisning psixosomatik jihatlarini (sharh). //Rossiya jurnali 2021;24(3) teri va jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar. DOI: <https://doi.org/10.17816/dv71927>.
13. Karavayeva T. A., Korolkova T. N. turli dermatozlarda psixologik mexanizmlar va psixosomatik munosabatlar. //Klinik dermatologiya va venerologiya. 2018;17(5):7-17. <https://doi.org/10.17116/klinderma2018170517>.
14. Olisova O. Yu., Garanyan L. G. psoriada epidemiologiya, etiopatogenez va komorbidlik yangi dalillar. //Rossiya teri va jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar jurnali. 2017;20(4):214-219. <http://dx.doi.org/10.18821/1560-9588-2017-20-4-214-219.io>
15. Pashinyan A.G., Dvornikov A.S., Dontsova E.V. Psoriasis bilan og'rigan bemorlarning hayot sifatini baholash: zamonaviy tadqiqotlarni ko'rib chiqish //Davolash ishi. 2019;2:32-35. <https://doi.org/10.24411/2071-5315-2019-12109>.
16. Raxmatov A.B., Qurbonova Sh.M., Maxmutov R.X. Surunkali dermatozli bemorlarni davolash va reabilitatsiya qilish tizimida psixoterapevtik tuzatishning ahamiyati to'g'risida. //Dermatovenerologiya va estetik tibbiyot. 2017;1:55-59.
17. Raxmatov A.B. Psoriatik kasallik. Toshkent shahri. 2019; 237b.
18. Rujinskiy A.G., Solovyova S.L. Psoriasisning turli darajadagi zo'ravonligi bo'lgan bemorlarda shaxsiyat va aqliy xususiyatlar //Nevrologik xabar. 2016;48(3):2533.

Qabul qilingan sana 20.12.2024